

Ш.А.Раззоқов  
“ 11 ” 05 2022 йил

2022 йилда Тошкент вилояти Зангиота туман Ободонлаштириш бошқармаси буюртмачилигида  
OPENbyudjet бўйича лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш учун ўтказиладиган қиймати бир  
шартнома бўйича базавий ҳисоблаш миқдорининг  
6000 бараваригача бўлган барча Энг яхши таклифларни танлашни ташкил этиш ва ўтказиш  
орқали, танлаш бўйича

## ЭНГ ЯХШИ ТАКЛИФЛАРНИ ТАНЛАШ КОМИССИЯСИНИНГ ИШ ТАРТИБИ (РЕГЛАМЕНТ)

### I. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР

1.1. Энг яхши таклифларни танлаш комиссиясининг иш тартиби Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги ўРҚ-684-сон Қонунини талаблари асосида ишлаб чиқилган бўлиб, харид комиссиясининг Энг яхши таклифларни танлашни ташкил этиш ва ўтказиш жараёнида олиб борадиган иш тартибини белгилайди.

1.2. Энг яхши таклифларни танлаш комиссияси коллегиял орган ва Энг яхши таклифларни танлашнинг асосий қатнашчиси (*Энг яхши таклифларни танлаш савдоларини ўтказиш жараёнининг доимий ёки вақтинчалик органи*) ҳисобланиб, буюртмачи (*инвестор*) томонидан ташкил этилиб, буйруқ ёки бошқа расмий ҳужжат билан тасдиқланади, Энг яхши таклифларни танлаш ўтказиш жараёнида пайдо бўладиган низолар ва келишмовчиликларни кўриб чиқишга ваколатлидир.

1.3. Мазкур харид комиссияси Зангиота туман Ободонлаштириш бошқармасининг 2022 йил 16 майдаги 14-сон буйруғи билан тасдиқланган.

### II. ХАРИД КОМИССИЯСИНИНГ ИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

2.1. Энг яхши таклифларни танлаш комиссиясининг дастлабки йиғилиши Энг яхши таклифларни танлаш ҳужжатининг ишлаб чиқилиши жараёнида ўтказилиб, харид комиссияси томонидан кўриб чиқилади ва тасдиқланади:

- Энг яхши таклифларни танлаш ва қатнашчиларнинг малакасини олдиндан аниқлаш ҳужжатларини, таклифни жойлаш шартлари ва талабларини;
- таклифларнинг техник ва молиявий баҳолаш мезонларини;
- Энг яхши таклифларни танлашда қатнашишга буюртманомаларни таъминлаш шаклини;
- таклифни қабул қилишнинг мудатини, таклифларни кўриб чиқиш мудатини, бунда махсус ахборот порталида эълон берилган кундан бошлаб 5 иш кунидан кам бўлмаслиги шарт.

2.2. Энг яхши таклифларни танлаш таклифларининг техник ва молиявий баҳолашнинг тавсиявий мезонлари 1-иловада келтирилган.

2.3. Техник ва молиявий баҳолаш мезонлари иш тури, таклиф қилинган нархлар ва бажариш муддатларидан келиб чиқиб ҳар бир объект бўйича алоҳида кўриб чиқилади ва тасдиқланади.

2.4. Харид комиссияси қайси бир Энг яхши таклифларни танлаш қатнашчисига устунлик берувчи Энг яхши таклифларни танлаш таклифларининг баҳолаш мезонларини белгилашга ҳақли эмаслар.

2.5. Энг яхши таклифларни танлаш комиссияси барча объектларни Энг яхши таклифларни танлаш ҳужжатларида кўрсатилган мезонларга мувофиқ таклифларни ўрганади, текширади ва кўриб чиқади, Энг яхши таклифларни танлаш ғолибини аниқлайди ёки бошқа қарор қабул қилади;

2.6. Энг яхши таклифларни танлаш комиссиясининг ҳар бир объект бўйича комиссия раиси ва иштирок этган барча комиссия аъзолари томонидан электрон имзо орқали тасдиқланадиган баённомалар юритилади.

### **III. МАЛАКАВИЙ ХУЖЖАТЛАРНИ, ТАРКИБИНИ КЎРИБ ЧИҚИШ ВА БАҲОЛАШ**

- 3.1. Барча таклифлар харид комиссияси томонидан тасдиқланган Энг яхши таклифларни танлаш ҳужжатларининг талабларига мос келиши керак;  
- Малакавий ҳужжатлар ва уларнинг таркиби ва уларнинг тўғри расмийлаштирилганлиги текширилганда уларнинг кўриниши буюртмачи томонидан тасдиқланган Энг яхши таклифларни танлаш ҳужжатларининг шартларига мос келиши керак.
- 3.2. Агар ҳужжатлар мавжуд бўлмаса ёки нотўғри расмийлаштирилган бўлса, Энг яхши таклифларни танлаш ҳужжатларининг молиявий таклифлари инobatга олинмайди.
- 3.3. Малакавий ҳужжатлар тасдиқланган мезонлар асосида ўрганиб чиқилади.
- 3.4. Энг яхши таклифларни танлаш комиссияси қатнашчиларнинг малака кўрсаткичларини баҳолашда барча комиссия аъзолари алоҳида, шу билан бирга ишчи гуруҳининг фаолиятига зарур бўлган ҳолларда мустақил экспертларни таклиф этади.
- 3.5. Баҳолаш гуруҳлари ёки мустақил экспертларга малакавий ҳужжатлар таркибини ўрганиш бўйича аниқ муддатлар белгиланиб, таклиф киритиш ҳақида топшириқлар берилади.
- 3.6. Малакавий ҳужжатлар таркибини ўрганиб бўлгандан сўнг энг яхши таклифларни танлаш комиссияси оддий овоз бериш усули билан қарор қабул қилади.
- 3.7. Агар қатнашчининг таклифи кейинги босқичларга ўтиши учун техник баҳолаш натижалари бўйича комиссия аъзоларининг кўпчилиги овози маъқулланса, харид комиссиясининг қарори ижобий ҳисобланади.
- 3.8. Энг яхши таклифларни танлаш комиссиясининг овозга қўйиш натижалари ҳақидаги маълумотлар махфий ҳисобланади ва ошкор этишга йўл қўйилмайди.
- 3.9. Ҳар бир таклифнинг кейинги босқичларга ўтиши учун Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчиси 60 балл ва ундан юқори балл тўплаши керак, ғолибни аниқлашда ёки комиссия аъзоларини бошқа ҳулоса ва қарорлари, овоз бериш усули орқали амалга оширилади.

### **IV. МОЛИЯВИЙ ТАКЛИФЛАР, ТАРКИБИНИ КЎРИБ ЧИҚИШ, БАҲОЛАШ ВА ЭНГ ЯХШИ ТАКЛИФЛАРНИ ТАНЛАШ ҒОЛИБИНИ АНИҚЛАШ**

- 4.1. Молиявий такливлар энг яхши таклифларни танлаш ҳужжатларининг талабларига мос келиши керак;  
- Молиявий такливлар, уларнинг таркиби ва уларнинг тўғри расмийлаштирилганлиги текширилганда кўриниши буюртмачи томонидан тасдиқланган Энг яхши таклифларни танлаш ҳужжатларининг шартларига мос келиши керак;  
- арифметик хатолар текширилади.
- 4.2. Молиявий такливлар таркибини ўрганиб бўлгандан сўнг энг яхши таклифларни танлаш комиссияси оддий овоз бериш усули билан қарор қабул қилади, Энг яхши таклифларни танлаш комиссияси аъзоларининг ҳар бири мустақил равишда Энг яхши таклифларни танлаш таклифлари бўйича қарор қабул қилиши мумкин.
- 4.3. Энг мақбул таклиф қилган нархи бўйича қатнашчи энг юқори яъни 35 балл, бажариш муддати буюртмачи белгиланган муддатга мос ёки ундан кам бўлса 5 балл билан баҳоланади, қолган иштирокчиларнинг баллари интерполяция усулида аниқланади.
- 4.4. Таклифларда таклиф этилган нархни ўзгартириш юзасидан музокаралар олиб бориш тақиқланади.
- 4.5. Савдолар туридан қатъи назар, Энг яхши таклифларни танлаш ғолиби Энг яхши таклифларни танлаш комиссиясининг ёпиқ мажлисида аниқланади. Энг яхши таклифларни танлаш комиссияси ғолибларни энг кўп рақобатли нархлар, етказиб бериш ва ишларни бажариш (хизматлар кўрсатиш) шартлари, тўлов ҳамда Энг яхши таклифларни танлаш шартларида белгиланган бошқа мезонлар бўйича аниқлайди.
- 4.6. Харид комиссиясининг овоз бериш натижалари ҳақидаги маълумотлар махфий ҳисобланади ва ошкор этишга йўл қўйилмайди.
- 4.7. Энг яхши таклифларни танлаш ғолибини аниқлаш бўйича харид комиссиясининг қарори махсус ахборот порталида эълон қилинади.
- 4.8. Комиссия томонидан келиб тушган таклифларга нисбатан қабул қилинган қарори якуний ҳисобланади. Энг яхши таклифларни танлаш тартибида келиб чиққан келишмовчиликлар ва низолар, буюртмачи, Энг яхши таклифларни танлаш комиссияси, Энг яхши таклифларни танлаш бошқа қатнашчиларининг хатти-ҳаракатлари (ҳаракатсизлик) ва қарорлар юзасидан шикоятлари қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда кўриб чиқилади.

Тошкент вилояти Зангиота туман ободонлаштириш бошқармаси буюртмачилигида 2022 йилдаги объектларига лойиҳа-смета хужжатларини ишлаб чиқиш учун ўтказиладиган қиймати бир шартнома бўйича базавий ҳисоблаш миқдорининг 6000 бараваригача бўлган барча Энг яхши таклифларни танлаш харидлари бўйича Энг яхши таклифларни танлаш таклифларини техник баҳолаш мезонлари

T/P	Шаклларни баҳолаш параметрининг номи	Баллар миқдори	Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчилари		
I. Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчиси ҳақида умумий маълумотлар. 1-шакл (19 балл)					
1.	Ташкилотнинг ташкилий тузилмаси, штат жадвали, ишчи ходимларнинг мутахассислиги бўйича маълумот (my.mehnat.uz порталидан ташкилотда ишлаётганлиги тўғрисида ёки меҳнат дафтарчаси тўғрисида маълумотнома тақдим этиш (QR-код), диплом ва буйруқ нусхаси).	4			
2.	Иш стажи 5 йилдан кам бўлмаган олий маълумотли мажбурий раҳбарлардан 1 киши мавжудлиги	3			
3.	Иш стажи 5 йилдан кам бўлмаган дипломли 1 киши лойиҳа бош муҳандисини мавжудлиги.	3			
4.	Иш стажи 5 йилдан кам бўлмаган дипломли 1 киши лойиҳа бош архитекторини мавжудлиги .	3			
5.	Доимий равишда ишловчи 2 тадан кам бўлмаган малакали ишчи ходимлар (мутахассислар) мавжудлиги.	3			
5.	Ходимларнинг ўртача сони 8 кишидан кам бўлмаган. Ҳодимларнинг меҳнат дафтарчалари my.mehnat.uz сайти орқали тасдиқланган QR кодлари билан илова қилинади.	3			
II. Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчисининг молиявий аҳволи. 2 ва 4-шакллар (28 балл)					
1.	Асосий воситаларнинг қолдиқ қиймати 100 млн. сум ва ундан кўп	4			
2.	Муддати ўтган кредиторлик қарздорлиги мавжуд эмаслиги. (Солиқ органидан маълумотнома)	4			
3.	Картотека қарздорлиги мавжуд эмаслиги	4			
4.	Иш ҳақи фонди 80 млн. сум ва ундан юқори	4			
5.	Объектнинг буюртмачи белгилаган бошланғич нархининг 20% миқдоридаги айланма маблағлар мавжудлиги (хизмат килувчи банк томонидан тасдиқланган айланма маблағлари мавжудлиги тугри сидаги маълумотнома асосида баҳоланади).	6			
6.	Ўз айланма маблағлари билан таъминланганлик коэффициенти 0,2 ва ундан кўп.	3			
7.	Тошкент шаҳар солиқ тўловчиси бўлиши	3			
III. Энг яхши таклифларни танлашдаги объектга ўхшаш объектларда охириги 3 йиллик иш тажрибаси* 3-шакл (19 балл)					
1.	Иштирокчи қайта ташкил этиш, тугатиш ёки банкротлик босқичида, буюртмачи билан суд ёки ҳакамлик муҳокамаси ҳолатида, шунингдек илгари	6			

	тузилган шартномалар бўйича бажарилмаган мажбуриятларнинг йўқлигини тасдиқловчи қафолат хати.				
2.	Энг яхши таклифларни танлаш савдосига ўхшаш профил бўйича охириги йили уз кучи билан бажариш.	6			
3.	Архитектура шаҳарсозлик ҳужжатларини ишлаб чиқиш фаолиятини амалга ошириш учун лицензия	7			
<b>III. Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчисининг ишларни бажаришда фойдаланадиган моддий-техник воситалари рўйхати.</b> <b>5-шакл (26 балл)</b>					
1.	Компьютер (ноутбук) техникалари 5 дона ва ундан кўп	6			
2.	Сметаларни ҳисоблаб чиқишда қўллаш учун дастурий комплекс (ABC 4 -uz ) 1 та	5			
3.	Плоттер 1 та	3			
4.	Принтер ва нусха кўпайтириш техникаси 2 та ва ундан кўп	3			
5.	Ўлчов асбоблари (шагометр , метр ) 1 та	5			
6.	Автомобиль 1 та	4			
<b>V. Лойиҳа-смета ҳужжатлари ишлаб чиқиладиган қурилиш (таъмирлаш) объектини кўздан кечирганлиги туғрисида маълумотнома.</b> <b>6-шакл (8 балл)</b>					
1.	Лойиҳа-смета ҳужжатлари ишлаб чиқиладиган қурилиш (таъмирлаш) объектини кўрганлиги ва ўрганиб чиққанлиги (объектнинг ҳозирги ҳолатидан фотосуратлар илова қилинади)	4			
2.	Ҳолиб бўлган ташкилот объектга нисбатан муаллифлик назорати ўтказиши шарт.	4			

Юқоридагиларни тўғри деб имзо чекувчилар:

Харид комиссияси раиси:

Зангиота туман Ободонлаштириш бошқармаси бошлиғи



Ш.А.Раззоқов


Харид комиссияси аъзолари:

Ободонлаштириш бошқармаси инф. туз. бўлим бошлиғи



Ж.Мирзарахимов

Ободонлаштириш бошқармаси об.сақлаш. бўлим бошлиғи



А.Асомов

Ободонлаштириш бошқармаси автотранспорт диспечири




Д.Турсунов

Ободонлаштириш бошқармаси Иксодриси



Ш.Мирзаева

Котиб: Ободон бошка техники



К.Рахимов



## XALQ DEPUTATLARI ZANGIOTA TUMAN KENGASHI QARORI

2022 - yil 26 - aprel

VI-40-49-10-138-K/22

Zangiota tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarorlariga asosan, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan jamoatchilik fikri asosida shakllangan va ovoz berish yakuniga ko‘ra g‘olib takliflarni tanlab olish hamda ularga mablag‘ yo‘naltirish to‘g‘risida**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini tizimli ravishda tashkil qilib borish va yuqoridagi qarorlardan kelib chiqqan holda, Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 12-maydagi VI/XXII-IV-son qarori va unga asosan tuman Ishchi guruhi tarkibi, mablag‘larni jamoatchilik fikri asosida shakillantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-sonli qaroriga muvofiq, Zangiota tumani mahalliy budjetning 2021-yil 3-chorak tuman maxalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan **1 464.0 mln. so‘m**, tuman maxalliy budjetining 2022-yil 1-yanvar xolatiga shakillangan qo‘shimcha manbasi hisobidan **1 351.9 mln. so‘m**, 2022-yil maxalliy budjet parametrlari hisobidan 2.5% yani **3 413.5 mln. so‘m** hamda 2021-yil fuqarolarning tashabbuslarini moliyalashtirishda iqtisod bo‘lgan mablag‘lari hisobidan **543.8 mln. so‘m** yo‘naltirilib, “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” maxsus g‘azna hisob

varagʻida jami **6 773.2 mln. soʻm** mablagʻ, “Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi” maxsus gʻazna hisob varagʻida mablagʻ shakllantirildi, Moliya vazirligi tomonidan ochilgan Ochiq budjet (**openbudjet.uz**) portalida 2022-yil 1-fevraldan 4-martga qadar boʻlgan davrda tuman fuqarolari tomonidan jami **63 mlrd. 653 mln. soʻmlik 192 ta taklif** kiritilganligi va bu takliflar Ishchi komissiyaning yigʻilishida komissiya aʼzolari tomonidan loyixa qiymatlari qayta koʻrib chiqilib, 50 ta taklif belgilangan tartibga zid ekanligi, 2022-yil dasturga tushganligi va imkoni mavjud emasligi sababli rad etish hamda rad etilgan takliflar boʻyicha taklif bergan shaxsning shaxsiy kabinetiga rad etishning asoslangan sabablari toʻgʻrisida **xabarnoma yuborildi**.

Tanlab olingan **42 mlrd. 369 mln. soʻmlik** 142 ta takliflar, masʼullar tomonidan qayta hisob-kitoblar qilinib, loyihalar miqdori **41 mlrd. 358 mln. soʻm** qilib belgilangan holda, jamoatchilik oʻrtasida yigirma kun davomida ovoz berish jarayoniga ruxsat berilgan va ovoz berish jarayoni joriy yil 5-martdan 1-aprelga qadar etib belgilangan edi.

Jamgʻarmada ajratilgan mablagʻlardan tashqari **355.4 mln. soʻm** mablagʻ qoldiq qolmoqda.

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish boʻyicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining koʻpayishi yoki loyihaning oʻzgartirilishi bilan bogʻliq oʻzgartirishlar kiritilishiga yoʻl qoʻyilmasligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar berildi. Tuman budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yoʻnaltirilgan mablagʻlarining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablagʻlarning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya aʼzolari shaxsan javobgarligi hamda jamoatchilik fikri asosida shakllangan va ovoz berish yakuniga koʻra gʻolib takliflarni tanlab olish va ularga mablagʻ yoʻnaltirish toʻgʻrisida tuman hokimligi moliya boʻlimi mudiri X.Asamutdinov bergan axborotlarini tinglab, Xalq deputatlari Zangiota tumani Kengashi,

## **QAROR QILADI:**

1.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-

tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarorida belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan ishchi komissiyaning hisoboti tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri X.Asamutdinov bergan ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2.Fuqarolar tomonidan ovoz berish jarayoniga ruxsat etilgan, 142 ta taklifdan 87 tasiga jami **35 839** ta ovoz berilganligi (***kiritilgan takliflar kesimida, berilgan ovozlar soni bo'yicha ma'lumot 1-ilovaga asosan***)

Ovoz berish yakuniga ko'ra, Moliya Vazirligining 2021-yil 6-sentabrdagi "Tuman va shaharlarda fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflar asosida g'oliblarni aniqlash yuzasidan" qo'llanmasi talablari asosida jamg'armada shakllangan mablag' doirasida eng ko'p ovoz olganlardan boshlab, pastga qarab, 9 ta taklif g'olib deb topilib, ushbu takliflarning qiymati **6 mlrd. 417 mln. so'mni** tashkil etilganligi (***g'olib takliflar ro'yhati 2-ilovaga asosan***)

G'olib takliflarni moliyalashtirish tegishincha xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan **manzilli ro'yxat** asosida amalga oshirilishi belgilanganligi (***manzilli ro'yxat 3- ilovaga ko'ra***) tasdiqlansin.

3.Manziliy ro'yxat asosida tasdiqlansin va ijro uchun qabul qilinsin.

### **Belgilab qo'yilsinki;**

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko'payishi yoki loyihaning o'zgartirilishi bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritilishiga yo'l qo'yilmasin.

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtir-ishga yo'naltiriladigan tuman budjeti mablag'lari tuman hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna hisob varag'ida jamlangan mablag'larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqiqlansin.

- Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag'larni, loyiha-smeta hujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Xalq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi komissiyaga ma'lumot kiritib borsin.

4.Tasdiqlangan Manziliy ro'yxat asosida:

- Tuman hokimligi Moliya bo'limi (X.Asamutdinov) tadbirlarni moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga mablag'

manbasi bo'yicha 4017 va tegishli bo'lim hamda kichik bo'limli "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" maxsus hisob raqamlar ochilishini;

- Tuman hokimligi hisobxonasi (X.Usmanov) Jamg'arma mablag'lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag'lar yo'naltirilishini;

- Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag'larni loyiha-smeta xujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Halq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi komissiyaga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

5.Tuman hokimligining matbuot kotibi-Axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi (N.Mavlonbekova) va tuman "Istiqbol" gazetasi (D.Sharipova) jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va g'olib deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni ijtimoiy tarmoqlarda va "Istiqbol" gazetasida joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta'minlasin.

6.Tuman byudjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag'larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a'zolari shaxsan javobgarligi eslatib o'tilsin.

7.Tuman hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari (X.Xadjamqulov) buyurtmachi tashkilotlar bilan birgalikda, belgilangan tartibda qurilish va ta'mirlashga oid tender tanlovlarini tezkorlikda odilona o'tkazilishini tashkillashtirsin.

8.Mazkur bayon ijrosini ta'minlash va nazorat qilish komissiya a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**Tamikayev A. U.**



Xalq deputatlari Zangiota tuman Kengashining  
2022 yil 26 apreldagi  
VI-40-49-10-138-K/22-son qaroriga  
1-ilova

**Zangiota tumani bo'yicha 2022-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllangan va ovoz olgan tadbirlar to'g'risida**

**MALUMOT**

<b>№</b>	<b>Taklif ID rqami</b>	<b>Qisqacha mazmuni</b>	<b>To'plangan ovozlari soni</b>	<b>Amalga oshirishning aniqlangan qiymati</b>
1	1960400007	Olmazor mahallasi Muqumiy-2, Ziyo ko'chalarini va ushbu ko'chaga ikkala tarafdin kiraverish qismini asfaltlash	4162	1 056 000 000
2	1960400003	Obod turmush mfy Obod turmush, Ibratli,A Temur, Muqumiy ko'cha yo'llarini tamirlash	4016	1 056 000 000
3	1960400135	Sortepa mfy Shodlik ko'chasi yo'lini asfalt qilish	3962	720 000 000
4	1960400029	Nurafshon mfy Gulirano va markaziy shifoxona ko'cha yo'llarini asfalt qilish	3102	720 000 000
5	1960400034	Madaniyat mfy Madaniyat ko'chasini asfalt qilish	3043	660 000 000
6	1960400123	Nihol mfy Muqumiy-1 tor va Muqumiy-2 tor ko'chalarini asfalt qilish	3028	360 000 000
7	1960400017	Achchisoy mfy Qo'rg'irotovul ko'chasini asfalt qilish	2753	400 000 000
8	1960400090	Tariqtashar mfy Yog'du asosiy ko'chasini asfalt qilish	2086	485 000 000
9	1960400192	Dehqonobod mfy Mirzo Ulug'bek va Madaniyat ko'chalarini asfalt qilish	1618	960 000 000
10	1960400055	Vatanparvar MFY sidagi Mirzaaxmedov ko'chasini asfalt koplama bilan koplash	1041	960 000 000
11	1960400019	Zangiota tumani Eski-qala MFY Mardona 2 tor ko'chasini Asfalt qilish,	878	155 600 000
12	1960400108	Zangiota tumani Abduljalilbob MFY Mangubarxayot 1 pr. ko'chasi Mangubarxayot 1-2-3 tupik ko'chalarni, xamda, Xurriyat 1-2-3 tor ko'chalarini asfalt qilish	763	150 000 000
13	1960400154	Eski Qal'a mfy Mardona 2 tor, Qalb ko'chalariga asfalt qoplamasini yotqizish	722	792 000 000.00
14	1960400001	Bodomzor mfyda ichki ko'chalarni asfaltlash qilish	621	1 056 000 000
15	1960400012	Bog'zor MFY harbiylar ko'chalari ichki yo'llarini asfaltlash jami 2200 metr	483	1 056 000 000
16	1960400161	Chorbog' mfy Navro'z ko'chasiga 6000 kvadrat metriga asfalt qilish uchun	384	720 000 000
17	1960400028	Erkin k.f.y. Maftunkor ko'chasini ichimlik suvi bilan ta'minlash	382	950 000 000
18	1960400098	Achchiq soy mfy Motrudiy ko'chasi 2 tor ko'chasining 4250 kv m yo'lini asfalt qilish uchun	265	510 000 000

19	1960400107	Temiryo'l ko'chasi-150 metri; Bog' ko'chasi-300 metri; Pilneva ko'chasi-150 metri; Yoshlik ko'chasi-400 metrini asfaltlashtirish va ta'mirlash	241	480 000 000
20	1960400151	O'rta MFY Stadion kochasini 800 metrini 5 metr kenglikda asfaltlash hamda 15 tunggi yoritish moslamalari	216	384 000 000
21	1960400035	Qaxramon mfy Istqbol 1_2 kochalarini 4400 k.v.metr kochani asfalt qilish	183	528 000 000
22	1960400155	Kichkina ka'ni 5-tor, Yangi Jamiyat, Yangi Jamiyat 2-berk, Bobur 3-tor kuchalari	182	931 680 000
23	1960400145	Chinor MFY, "Yoshlik maskani" BUSH ichki yo'llarini asfaltlash	178	336 000 000
24	1960400056	Fayz MFYda ichki va tashqi asfalt yo'llari tamir talab ahvolga kelib qolgan, buning oqibatida mahalla fuqarolari va transport vositalarining foydalanishida qiyinchiliklar tug'ilmogda! MFYda yosh bolalarni vaqtini unumli o'tkazishi uchun bolalar maydonchasi va yoshlar kutubxonasiga extyoj katta! Ko'p qavatli uylarning yer to'lalari tamirtalab ahvolga kelib qolgan!	160	960 000 000
25	1960400066	Ko'chani asfalt va yeritish kerak raxmat.	150	150 000 000
26	1960400115	Qurilish MFY yo'llari bir necha yildan beri abgor axvolda, ta'mirtalab. Xar yili faqatgina yamaladi, lekin yo'l axvoliga bu chora yordam bermaydi. Bolalar maktabga qatnashi uchun trotuar xam yo'q. Shularni inobatga olgan xolda yo'llarni ta'mirlab berishingizni so'raymiz.	145	900 000 000
27	1960400172	Dexkonobod MFY Uzbekiston kochasini 550 metr uzunlikda 4 metr kenglikda 2200 m 2 asfaltlash	109	264 000 000
28	1960400071	Iqbol MFY hududidagi 1400 metr ichki ko'chalar ta'mirtalab darajada. Ushbu ko'chaga kirib kelish uchun Erksevar ko'chasi, Bog'iston va Yangiobod ko'chalariga asfalt qoplamasi yotqizish lozim.	99	672 000 000
29	1960400072	Navqiron mfy Markaz shox 10 pr 7800 kv m yo'lini asfalt qilish uchun	96	864 000 000
30	1960400174	Oybek mfy mustaqillik1-2 tor, Abdulla Qaxxor, 1-tor ko'chalariga 2000 kvadrat metr ko'chalariga asfalt qoplamasini yotqizish uchun	78	240 000 000
31	1960400132	Nurobod mfy Sharof rashidov ko'chasining 100 kvadrat metriga asfalt qoplamasini yotqizish	56	20 000 000
32	1960400166	kichkina ka'ni kochasi - 9945m2 asfaltlashtirish	47	264 000 000
33	1960400023	Asfalt qilish	45	240 000 000
34	1960400133	Nurobod mfy Sharof Rashidov ko'chasiga 30 dona latok yotqizish uchun	43	24 000 000
35	1960400049	Farobiy mfy Qoraqamish 5 berk ko'chasining 1600 kv myo'lini asfalt qilish	35	192 000 000
36	1960400097	Bo'ston mfy Mustaqillik 1-2-3, Xondamir ko'chalarini asfaltlash 1500 metr 6000 kvm	32	720 000 000
37	1960400124	Toshkent viloyati Zangiota tumani Buston MFY Uchavlod kuchalarini asfaltlash 1500 metr	30	720 000 000

38	1960400067	Yangi -Xayot MFYda joylashgan K.Bexzod -4 tor kuchasining 500 metr,Gulxaniy kuchasi 500 metr,Gulxaniy - 2 tor kuchasi 600 metr,	30	768 000 000
39	1960400117	Bizning Zangiota tumani Namuna mahallasiga internet (simli) olib kelish.	30	100 000 000
40	1960400128	Nurobod mfy Mirzo Ulug'bek ko'chasiga 1500 metr 50 diogonal xajmdagi ichimlik suv trubasi uchun	28	130 000 000
41	1960400037	Tabobot Tabobot ko'chasining 1200 m kv yo'lini asfalt qilish	27	144 000 000
42	1960400120	Yangi hayot mfy Kamoliddin Begzot 4- tor ko'chasining 1600 kvadrat metriga asfalt qoplamasini yotqizish	24	200 000 000
43	1960400032	Yangi ximoyachi Ko'chasini 4000 m kv yo'lini asfalt qilish	23	480 000 000
44	1960400126	Nurobod mfy Mirzo Ulug'bek ko'chasining 2880 kvadrat metr yo'lini asfalt qilish	20	350 000 000
45	1960400102	Men Samarqand Veterinariya Meditsinasi instituti Toshkent filialida 2 bosqichida o'qiyman. Filial ochilganiga endigina 1-2yil bo'ldi. Biroq filial binosi maxsus talabalar o'quv binosi emas-moslashtirilgan tipda. Shu sababli o'quv jarayonida sifatli bilim olish va yetuk mutaxassis bo'lib yetishish uchun shart-sharoitlar biroz kamroqdek nazrimda. Masalan: o'quv xonalari innovatsion o'quv mebellari jixozlash, amaliy-laboratoriya darslari uchun maxsus xonalarni tashkil etish, kutubxonani sohaga oid muqovali hamda elektron kitoblar bilan boyitish, umuman olganda ta'lim dargohini moddiy-texnik bazasini yanada kengaytirish to'g'risida tashabbus kiritmoqchiman!	17	500 000 000
46	1960400130	Nurobod mfy Sharof Rashidov ko'chasiga 50 ta Stolba va 50 ta Tungi yoritish chiroqlari	17	85 000 000
47	1960400188	O'rtaovul MFY Navoiy ko'chasi piyodalar yo'lagini ta'mirlash 1260 metir kvadirat 1260*120000=151200000so'm	15	151 200 000
48	1960400150	O'rtta MFY Axillik ko'chasini 25 ta yo'ritish asboblari hamda 1000 metr yolni 5 metr kenglikda asfaltlash	13	480 000 000
49	1960400163	Chorbog' mfy Navro'z ko'chasiga 2800 metr ichimlik suv quvirlarini o'rnatish uchun	12	225 000 000
50	1960400121	Yangi hayot mfy Gulxaniy ko'chasiga 50 ta sim yog'och ustunlari	12	90 000 000
51	1960400118	Ichki ko'chalarni kapital ta'mirlash 2000 metr.	11	960 000 000
52	1960400162	piyodalar yulakchalari va Kichkina ka'ni 1- tor kuchasini asfaltlashtirish	11	185 760 000
53	1960400122	Yangi hayot mfy Gulxaniy 2- tor ko'chasining 1200 kvadrat metr yo'liga asfalt qoplamasi yotqizish	11	144 000 000
54	1960400094	Aloqa MFY Aloqa 2-tor ko'cha 200 metr, Yangi Zamin ko'chasi 200 metr, Yosh avlod ko'chasi 100 metr jami 500 metr masofada asfalt qilish ishlarini olib borish.	10	240 000 000

55	1960400148	O'RTA mfy hududidagi isteod kochasining 1200 metrini 4 metr kenglikda asfaltlash, hamda 40 ta tunggi yoritgichlar bilan taminlash	9	144 000 000
56	1960400083	Iqbol mfy Erk sevar ko'chasining 2400 kv m yo'lini asfalt qilish uchun	8	288 000 000
57	1960400033	Ibrat mfy, Bobur kuchasi 350m kuchani 4 m enida asfaltlash. Jami 1400 kvadrat metr.	8	168 000 000
58	1960400018	Zangiota Tuman Amir Temur MFYda Joylashgan Narimon Xojiboyev kuchasidan Sobir Raximov kuchasiga tutashgan ichki kuchaning 215 metr (jami 860 metr/kvadrat) kismini asfalt qilish asfalti.	7	106 296 000
59	1960400186	M M Xorazmiy Ezoz, Ezoz 1 xamda 2 tor ko'chalar va Mardlik 1-tor ko'chalariga 6800 kvadrat metr asfalt qoplamasini yotqizish uchun	6	816 000 000
60	1960400104	Ushbu ko'cha 1260 metri tashkil qiladi. Shu ko'chani asfalti uchun taxminan 700mln so'm pul mablag'i talab qilinadi.	4	604 000 000
61	1960400076	Iqbol mfy Bek baraka asosiy ko'chasining 1600 kv m yo'lini asfalt qilish	4	192 000 000
62	1960400092	Tokzor maxalla fuqarolar yigini Ganchkorlik kochasi 28 A uy simyogochlar ornatish kerak jami 10 dona elektr kabel va yoritgichlari bilan	4	17 000 000
63	1960400144	Bodomzor MFY, Nurafshon ko'chasini uzunligi 309 metr, eni 5 metr jami 1 545 kvadrat metr xajmda asfaltlash	3	185 400 000
64	1960400190	Dehqonobod MFY binosini tamirlash va maydoniga zamonaviy kutubxona qurish Nuroniylar maskani qurish kichkina bolsa ham inson qadri uchun	3	1 000 000 000
65	1960400036	Abdujalilbob Mfy. Nixol Mfy. Olmazor Mfy. xududidagi Xayratiy ko'chasida 1.5km ichimlik suv quvirlarini almashtirish	3	285 000 000
66	1960400045	3300 metr uzunlikda bo'lgan Uch avlod ko'chasini 2000 metr qismini asfalt qilish	3	960 000 000
67	1960400046	Qaxramon mfy Xushroy kochallarini 2800 k.v.metr asfalt qilish	3	336 000 000
68	1960400138	Obo mfy Nurxayot 1 ko'chasiga 13 dona tungi yoritkich chiroqlari uchun	3	22 100 000
69	1960400105	Xarakat MFY, I.Musayev ko'chasida joylashgan transformator punktini quvati kamlik qilayotganligi va eskirib yaroqsiz holga kelib qolganligi sababli yangi va katta quvatlisiga almashtirish. Shu bilan birga I. Musayev ko'chasidagi elektr uzatish tarmoqlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, ko'cha tungi yoritish chiroqlarini o'rnatish, jinoyatchilikni va turli noxushliklarni oldini olish maqsadida kuzatuv kameralari o'rnatish. Ita transformatr taxminiy narxi 800 000 000 so'm. Ko'cha tungi yoritish chiroqlari soni 35 ta. (35*700000=25 000 000) Ko'shimcha 8 dona beton stolba (8*2000000=16000000) Jami: 845 000 000 so'm	3	845 000 000
70	1960400021	Mevazor mfy yoshlik kuchasiga 8000 kvadrat metr yoliga asfalt kilish	2	960 000 000

71	1960400089	Xarbiylar ko'chasining 350 metr qismini shag'allashtirish, 30 dona beton stolba o'rnatish, 350 metr elektr tarmog'ini tortish va 20 dona tungi yoritgich o'rnatish.	2	168 000 000
72	1960400084	Iqbol mfy Bog'iston ko'chsining 1600 kv m yo'lini asfalt qilish uchun	2	192 000 000
73	1960400077	Iqbol mfy Markaz shox ko'chasini 1400 kv m yo'lini asfalt qili uchun	2	168 000 000
74	1960400106	Xarakat MFYda joylashgan I.Musayev ko'chasini mukamall va to'liq ta'mirlash (asfalt yotqizish, ariqlarni tamirlash va lotoklar yotqizish,). Ko'cha uzunligi 1000 metr eni 7 metr jami 7000 kvadrat metr joyni asfalt qilish kerak. 1 kvadrat metr asfalt 130 000 so'm. (7000x130000=910000000). Ariqlarni tozalash va lotoklar yotqizish umumiy uzunligi 2000 metr talab qilinadigan mablag' 200 000 000 so'm.	2	840 000 000
75	1960400113	Olmozor ko'chasiga 3 fazali elektr tokini ko'chirish va tungi yoritgichlar o'rnatish. Mustaqilik kochasiga 1200 metr asfalt yotqizish , Yoshlik ko'chasiga 50 metr, Mirzo Ulug'bek ko'chasi 1000 metr asfalt yotqizib berishingizni so'rayman	1	580 000 000
76	1960400170	Dexkonobod MFY Mustakillik kuchasini 750 metr uzunlikda 4 metr kenglikda 3000 kv metrni asfaltlash	1	380 000 000
77	1960400129	Zangiota tumani Urtaovul qfy Nixol mfy Muqumiy 1 tor ko'cha ichki yo'llarini asfalt qilish.	1	360 000 000
78	1960400157	Axmad Yassaviy mfy Soxibkor, Chaman va Roxat ko'chalarining 5320 kvadrat metr yo'lga asfalt qoplamasini yotqizish uchun	1	638 400 000
79	1960400043	Nixol Mfy dilxush kchasi asfalt qoplamasi yotkazish	1	580 000 000
80	1960400143	Qudratli 2 ko'chasini kapital ta'milash. 1 km qismini.	1	480 000 000
81	1960400053	Keng-kichik mfy E'tiqod ko'chasi 1000 metr qismini asfaltlash	1	480 000 000
82	1960400137	obod mfy Nurxayot 1 ko'chasiga 20 dona sim yog'och o'rnaish kerak	1	34 000 000
83	1960400038	Alimbuva mfy Osuda, Samimiyat xamda, Jushqin-4 ko'chalarining 3120 m kv yo'lini asfalt qilish	1	374 400 000
84	1960400185	M M Xorazmiy mfy xududida joylashgan 5 son DMTM ga 1 dona Elektor transformator o'rnatish extiyoji bor	1	100 000 000
85	1960400016	Zangiota tumani, Sorteпа MFY Orasta ko'chasi yo'llarini mukkamal asfalt qilish kerak. Yo'llar tamirga muxtoj. 3600 kvadratini asfalt qilish	1	432 000 000
86	1960400127	Nurobod mfy tinchlik ko'chasining 1200 kvadrat metriga asalt qoplamasini yotqizish	1	150 000 000
87	1960400164	Eshonguzar mfy Sharq yulduzi 3 tor xamda UsmonNosir ko'chalariga jami 1480 kvadrat metr yo'lga asfalt qoplamasini yotqizish uchun	1	180 000 000

Xalq deputatlari Zangiota tuman Kengashining  
2022 yil 26 apreldagi  
VI-40-49-10-138-K/22-son qaroriga  
2-ilova

**Zangiota tumani bo'yicha 2022 yilda jamoatchilik fikri asosida shakllangan va g'olib bo'lgan tadbirlar to'g'risida**

**M A L U M O T**

<b>№</b>	<b>Taklif ID raqami</b>	<b>Qisqacha mazmuni</b>	<b>To'plangan ovozlar soni</b>	<b>Amalga oshirishning aniqlangan qiymati</b>
1	1960400007	Olmazor mahallasi Muqumiy-2, Ziyo ko'chalarini va ushbu ko'chaga ikkala tarafdin kiraverish qismini asfaltlash	4162	1 056 000 000
2	1960400003	Obod turmush mfy Obod turmush, Ibratli,A Temur, Muqumiy ko'cha yo'llarini tamirlash	4016	1 056 000 000
3	1960400135	Sortepa mfy Shodlik ko'chasi yo'lini asfalt qilish	3962	720 000 000
4	1960400029	Nurafshon mfy Gulirano va markaziy shifoxona ko'cha yo'llarini asfalt qilish	3102	720 000 000
5	1960400034	Madaniyat mfy Madaniyat ko'chasini asfalt qilish	3043	660 000 000
6	1960400123	Nihol mfy Muqumiy-1 tor va Muqumiy-2 tor ko'chalarini asfalt qilish	3028	360 000 000
7	1960400017	Achchisoy mfy Qo'rg'irotovul ko'chasini asfalt qilish	2753	400 000 000
8	1960400090	Tariqteshar mfy Yog'du asosiy ko'chasini asfalt qilish	2086	485 000 000
9	1960400192	Dehqonobod mfy Mirzo Ulug'bek va Madaniyat ko'chalarini asfalt qilish	1618	960 000 000

Xalq deputatlari Zangiota tuman Kengashining  
2022 yil 26 apreldagi  
VI-40-49-10-138-K/22-son qaroriga  
3-ilova

**Zangiota tumani bo'yicha 2022 yilda jamoatchilik fikri asosida shakillangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha**

**MANZILLI RO'YXAT**

№	G'olib takliflar			Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Haqiqatda ajratilgan	Moliyalashtirish manbasi	Buyurtmachi tashkilot
	Taklifning ID raqami	Taklif mazmuni	To'plangan ovozlari soni				
<b>"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi " da shakillangan mablag'lar</b>					<b>x</b>	<b>x</b>	<b>x</b>
1	1960400007	Olmazor mfy Muqumiy-2, Ziyo ko'chalarini va ushbu ko'chaga ikkala tarafdin kiraverish qismini asfaltlash	4162	1056,0	1056,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
2	1960400003	Obod Turmush mfy Obod turmush, Ibratli, A Temur, Muqumiy ko'cha yo'llarini tamirlash.	4016	1056,0	1056,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
3	1960400135	Sortepa mfy Shodlik ko'chasi yo'lini asfalt qilish	3962	720,0	720,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
4	1960400029	Nurafshon mfy Gulirano va Markaziy shifoxona ko'cha yo'llarini asfalt qilish	3102	720,0	720,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi

5	1960400034	Madaniyat mfy Madaniyat ko'chasini asfalt qilish	3043	660,0	660,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
6	1960400123	Nihol mfy Muqumiy-1 tor va Muqumiy-2 tor ko'chalarini asfalt qilish	3028	360,0	360,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
7	1960400017	Achchisoy mfy Qo'ng'irotovul ko'chasini asfalt qilish	2753	400,0	400,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
8	1960400090	Tariqteshar mfy Yog'du asosiy ko'chasini asfalt qilish	2086	485,0	485,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
9	1960400192	Dehqonobod mfy Mirzo Ulug'bek va Madaniyat ko'chalarini asfalt qilish	1618	960,0	960,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
<b>JAMI</b>					<b>6417,0</b>	<b>x</b>	<b>x</b>
<b>Taqsimlanmagan mablag'</b>					<b>355,4</b>	<b>x</b>	<b>x</b>